UO‘K 740

IJTIMOIY FENOMENLARNING SHAKLLANISHIDA SPORTNING AHAMIYATI

Z.P. Jumakulov

Maqolada sport va madaniyatning jamiyat rivojlanishidagi o‘zaro ta’siri tahlil qilingan. Sport jamiyatda madaniy elementlar bilan uyg‘unlashib, ma’naviy rivojlanishga ko‘maklashadi, madaniy merosni saqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sport insonlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni kuchaytirib, ijtimoiy jarayonlarni faollashtiradi va jamiyatning umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Sport tadbirlari orqali turli millat vakillari o‘rtasida madaniy almashinuv yuz beradi.

Kalit so‘zlar: *sport, madaniyat, ijtimoiy fenomen, ma’naviy rivojlanish, integratsiya, inson salohiyati, tarbiya, interaktivlik, dualizm.*

В статье проанализировано взаимовлияние спорта и культуры в развитии общества. Спорт, гармонично сочетаясь в обществе с элементами культуры, способствует духовному развитию, служит важным средством сохранения культурного наследия. Спорт усиливает общение и сотрудничество между людьми, активизирует социальные процессы и вносит вклад в общее развитие общества. Посредством спортивных мероприятий происходит культурный обмен между людьми разных национальностей.

Ключевые слова: *спорт, культура, социальный феномен, духовное развитие, интеграция, человеческий потенциал, воспитание, интерактивность, дуализм.*

Kirish

Ijtimoiy fenomen jamiyatda sodir bo‘ladigan, insonlar va ularning o‘zaro aloqalari orqali shakllanadigan va taraqqiy etadigan hodisalarni anglatadi. Ijtimoiy fenomenlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ular jamiyatdagi umumiy me’yor va qoidalar asosida amalga oshadi hamda jamiyatning turli sohalariga ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy adolatning asosiy tamoyillaridan biri har bir shaxsga o‘z iqtidorini reallashtirish va jamiyatda munosib o‘rnini topish uchun teng imkoniyat yaratishdan iborat. Yoshlar ijtimoiy fenomen sifatida jamiyatning rivojlanishi va o‘zgarish jarayonlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ta’limi va tarbiyasi jamiyatdagi ijtimoiy dinamika va innovatsiyalarni shakllantirib, kelajak yo‘nalishlarini belgilaydi. Yoshlarning ma’naviy va intellektual rivojlanishi ularning jamiyatdagi o‘rni va kelajakdagi rolini belgilaydi. Bunda jamiyatning barqarorligi va umumiy taraqqiyotiga yosh avlodning ta’siri katta ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan islohotlar jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasida teng imkoniyatlar yaratishi kerak. Aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar barcha fuqarolar uchun teng manfaat keltirishi lozim. Zotan, ijtimoiy adolatni ta’minlash, turmush darajasini oshirish hamda islohotlarning uzluksiz davom etishi jamiyatning barqarorligi va umumiy rivojlanishi uchun muhimdir.

Material va usullar

A.X.Saidovning ta’kidlashicha, “ijtimoiy fenomenlar jamiyatdagi insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va munosabatlar natijasida yuzaga keladi. Unga ko‘ra, bu fenomenlar ijtimoiy tartib va madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, ular jamiyatning rivojlanishi va o‘zgarishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy fenomenlar insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va aloqalar orqali shakllanadi va ular jamiyatdagi har bir a’zo uchun muhim ahamiyatga ega” [1. B. 120].

Ijtimoiy fenomenlar jamiyatdagi munosabatlar va o‘zaro ta’sirlar asosida barqaror tartib va madaniyatning shakllanishiga yordam beradi. Masalan, oilaviy munosabatlar, ish joyidagi aloqalar hamda turli ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabatlar insonlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu munosabatlar jamiyatdagi qiymatlar, qoidalar va madaniy an’analar asosida tartibga solinadi. A.X.Saidovning fikricha, har bir ijtimoiy fenomen jamiyatda o‘ziga xos o‘rin va

vazifaga ega bo‘lib, ular jamiyatning barqarorligi va birdamligini ta’minlashga hissa qo‘shadi.

Shu bilan birga, A.X.Saidov ijtimoiy fenomenlarning jamiyat rivojlanishi va o‘zgarishiga ta’sir etishini ham ta’kidlaydi. Uning fikricha, jamiyatdagi har bir o‘zgarish yoki rivojlanish jarayoni yangi ijtimoiy fenomenlarning paydo bo‘lishiga va mavjud fenomenlarning o‘zgarishiga olib keladi [2. B. 142]. Masalan, iqtisodiy, siyosiy yoki texnologik o‘zgarishlar jamiyatdagi munosabatlar va aloqalarning qayta shakllanishiga olib keladi, bu esa yangi ijtimoiy fenomenlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiy fenomenlar jamiyatning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ular jamiyat kelajagini belgilaydi. A.X.Saidovning ta’kidlashicha, “ijtimoiy fenomenlarni o‘rganish va ularning jamiyatdagi o‘rnini tushunish jamiyatshunoslik va sotsiologiya sohalarida katta ahamiyatga ega. Ushbu fenomenlarning tahlili jamiyatdagi o‘zgarishlar va rivojlanish jarayonlarini tushunishga yordam beradi, shuningdek, jamiyat barqarorligi va hamkorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi” [2. B. 144].

A.X.Saidovning ijtimoiy fenomenlar haqidagi qarashlari jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va aloqalarning ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ular jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi hamda jamiyatshunoslik sohasida muhim ilmiy asoslarni shakllantiradi.

M.T.Jo‘rayevning ilmiy ishlarida esa ijtimoiy fenomenlar jamiyatdagi ijtimoiy institutlar va normalar bilan bog‘liq holda izohlanadi. Uning fikricha, ijtimoiy fenomenlar insonlar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar va urf-odatlar orqali shakllanadi va ularning ijtimoiy hayotini belgilaydi. M.T.Jo‘rayev ta’kidlashicha, “har bir jamiyat o‘zining an’analari, qoidalari va normalariga ega bo‘lib, ular jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy hayotni tashkil qiladi” [3. B. 95].

M.T.Jo‘rayev fikricha, “ijtimoiy fenomenlar jamiyatdagi turli ijtimoiy institutlar, masalan, oila, ta’lim, din va siyosat orqali shakllanadi. Bu institutlar jamiyatning asosiy tuzilmalari hisoblanadi va ular insonlarning kundalik hayotida muhim rol o‘ynaydi” [3. B. 122]. Masalan, oila instituti insonlar o‘rtasidagi shaxsiy va yaqin munosabatlarni tartibga soladi, ta’lim instituti bilim va qadriyatlarni uzatish vazifasini bajaradi. Din va siyosat institutlari esa ma’naviy va siyosiy me’yorlarni belgilaydi va ular orqali jamiyatdagi tartibni ta’minlaydi.

Ijtimoiy fenomenlar jamiyatda mavjud bo‘lgan normalar va qoidalar asosida shakllanadi. M.T.Jo‘rayevning fikricha, “bu normalar va qoidalar insonlar tomonidan qabul qilingan va jamiyatdagi umumiy qiymatlar va urf-odatlarga asoslangan. Ular insonlarning ijtimoiy harakatlarini yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega” [4. B. 12–34]. Jamiyatda mavjud qonunlar va axloqiy me’yorlar insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va ularning ijtimoiy hayotini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

M.T.Jo‘rayevning fikricha, “ijtimoiy fenomenlar jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega: “ijtimoiy fenomenlarni tushunish va ularning ijtimoiy institutlar va normalar bilan bog‘liqligini aniqlash jamiyatshunoslik va sotsiologiya sohalarida muhimdir. Bu fenomenlarning tahlili jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalarning qanday shakllanishi va rivojlanishini tushunishga yordam beradi” [5. B. 45–67]. M.T.Jo‘rayevning ijtimoiy fenomenlar haqidagi qarashlari jamiyatdagi turli hodisa va jarayonlarning mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi hamda jamiyatning umumiy tuzilmalari va rivojlanish jarayonlarini tushunish uchun muhim asos yaratadi.

A.I.Mahkamovning ijtimoiy fenomenlarga oid tadqiqotlarida ular insonlar tomonidan yaratilgan ijtimoiy strukturalar va munosabatlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Olimning fikricha, “ijtimoiy fenomenlar insonlarning ma’naviy va madaniy qiymatlari asosida yuzaga keladi va ular jamiyatning ijtimoiy dinamikasida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy fenomenlar insonlarning o‘z hayotini tartibga solish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va ijtimoiy munosabatlarini yo‘naltirish uchun yaratiladi” [6. B. 134].

Ijtimoiy tuzilmalar jamiyatdagi turli guruhlar, institutlar va tashkilotlardan iborat bo‘lib, ular insonlar tomonidan shakllantiriladi va ularning faoliyati hamda o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. A.I.Mahkamov ta’lim, oila, din va iqtisodiy tuzilmalarga jamiyatning asosiy ijtimoiy strukturalari sifatida qaraydi. Ushbu tuzilmalar insonlar hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ma’naviy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

Ijtimoiy fenomenlar insonlarning ma’naviy va madaniy qadriyatlari asosida shakllanadi. A.I.Mahkamov qayd etganidek, har bir jamiyat o‘z an’ana va urf-odatlariga ega bo‘lib, bu qoidalar insonlarning kundalik hayotida muhim o‘rin tutadi. Ma’naviy qadriyatlar insonlarning axloqiy me’yorlarini belgilab, ularning faoliyatini yo‘naltiradi, madaniy qadriyatlar esa insonlarning madaniy merosini saqlab, uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

A.I.Mahkamov ijtimoiy fenomenlarning jamiyat ijtimoiy dinamikasidagi o‘rniga diqqat qaratadi. Bu fenomenlar jamiyatdagi o‘zgarishlar va rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Masalan, yangi madaniy qiymatlar va urf-odatlar paydo bo‘lishi, yoki mavjud ijtimoiy strukturalar va munosabatlarning o‘zgarishi

jamiyatning ijtimoiy dinamikasiga ta’sir qiladi. Shu tariqa ijtimoiy fenomenlarni o‘rganish jamiyatning rivojlanish jarayonlarini tushunish va ularning ijtimoiy strukturalar va munosabatlar bilan bog‘liqligini aniqlashga imkon beradi [6. B. 156].

Pitirim Sorokin ijtimoiy fenomenlar tushunchasiga alohida e’tibor qaratib, ularni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va ierarxiyalarga bog‘lab izohlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy fenomenlar insonlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlik natijasida yuzaga keladi va ular jamiyatning asosiy tuzilmalarini tashkil qiladi [7. B. 85]. P.Sorokin nazariyasiga ko‘ra, har qanday ijtimoiy fenomenni to‘liq anglash uchun uni ijtimoiy munosabatlar va ierarxiyalar bilan bog‘liq holda o‘rganish lozim.

Ijtimoiy fenomenlar insonlarning o‘zaro aloqalari, ta’sirlari va hamkorliklari natijasida shakllanadi. Xususan, oila, do‘stlik, mehnat jamoalari va boshqa ijtimoiy guruhlar muloqot va hamkorlik natijasida shakllanadi. Bu guruhlar jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalarning ajralmas qismidir. P.Sorokinning ta’kidlashicha, ijtimoiy fenomenlarni tushunish uchun ularning yuzaga kelish sabablarini, rivojlanish jarayonlarini va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rnini aniqlash lozim [8. B. 105–106].

Ijtimoiy iyerarxiyalar ijtimoiy fenomenlarni tushunishda muhim o‘rin tutadi. Ular jamiyatdagi yuqori va quyi guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda etadi. P.Sorokinning ta’kidlashicha, ijtimoiy fenomenlar iyerarxiyalar va qonun-qoidalar asosida tartibga solinadi. Siyosiy tuzilmalar, iqtisodiy munosabatlar va madaniy an’analar jamiyatdagi iyerarxiyalarni shakllantiradi, shu orqali ijtimoiy fenomenlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, P.Sorokin ijtimoiy fenomenlarning turli xil ko‘rinishlarini o‘rganishni zarur deb biladi, chunki bu insonlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikning xilma-xilligi va ularning jamiyat tuzilmalaridagi o‘rnini tushunishga yordam beradi. Uning tadqiqotlari ijtimoiy tuzilmalar va iyerarxiyalar asosida jamiyatdagi munosabatlarni tushunishda ilmiy asos yaratadi [9. B. 212–213]. P.Sorokinning ijtimoiy fenomenlar haqidagi qarashlari jamiyatshunoslik va sotsiologiya sohalarida katta ahamiyat kasb etadi, jamiyatdagi turli ijtimoiy hodisalarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Natijalar

Maks Veberning ijtimoiy fenomenlar haqidagi tadqiqotlari insonlarning harakatlari va ularning maqsadlari asosida tushuntirishga asoslangan. Veberning fikriga ko‘ra, ijtimoiy fenomenlarni tushunish uchun insonlarning harakatlariga beradigan ma’no va qiymatlarini o‘rganish zarur. Uning fikricha, ijtimoiy fenomenlar insonlar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning ma’nolari va ularning maqsadlariga qarab shakllanadi [10. B. 88-90].

Veberning metodologiyasi “tushunuvchi sotsiologiya” deb ataladi, chunki u insonlarning ijtimoiy harakatlarini ularning subyektiv ma’nolari asosida anglashga yo‘naltirilgan. Veberning fikricha, har bir ijtimoiy harakat insonning o‘ziga xos maqsad va ma’nolarini ifodalaydi. Masalan, bir shaxs ishga faqat moddiy daromad olish uchungina emas, balki ijtimoiy maqomini saqlash, jamiyatdagi o‘z o‘rnini mustahkamlash yoki shaxsiy qoniqishga erishish uchun ham borishi mumkin.

Veber ijtimoiy harakatlarni to‘rt turga ajratadi: maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar, qadriyatlarga asoslangan harakatlar, affektiv (emotsional) harakatlar va an’anaviy harakatlar. Maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar ratsional fikrlash natijasida amalga oshiriladi va muayyan natijalarga erishishga qaratiladi. Qadriyatlarga asoslangan harakatlar muayyan qadriyat va e’tiqodlarga asoslanadi va insonning ichki mezonlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Affektiv harakatlar hissiy holatlarga asoslangan bo‘lib, insonning hissiyotiga qarab shakllanadi. An’anaviy harakatlar esa jamiyatda uzoq muddat davom etgan an’analar va urf-odatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi [11. B. 24–26].

Veberning ta’kidlashicha, ijtimoiy fenomenlar insonlarning ma’no va qadriyatlariga asoslangan harakatlari natijasida shakllanadi va bu harakatlar ularning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rnini belgilab beradi. Shu bois Veberning nazariyasi ijtimoiy hodisalarni tushunish va tahlil qilishda katta ahamiyatga ega, chunki u jamiyatdagi turli ijtimoiy jarayonlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish sabablarini kengroq anglash imkonini beradi. Uning metodologiyasi insonlarning ijtimoiy hayoti va harakatlarini yanada chuqurroq anglashda muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Emil Dyurkgeym ijtimoiy fenomenlarni jamiyatning tuzilmaviy unsurlari sifatida ko‘radi. Uning fikricha, ijtimoiy fenomenlar individual ongdan ko‘ra ko‘proq jamoaviy ongning natijasidir. Dyurkgeym nazariyasiga ko‘ra, jamiyatdagi har qanday ijtimoiy fenomen – diniy e’tiqodlar, qonun-qoidalar, urf-odatlar yoki axloqiy me’yorlar bo‘ladimi – ularning barchasi jamiyat a’zolari o‘rtasidagi birdamlik va hamkorlikni ta’minlaydi [12. B. 54–57].

Dyurkgeym fikricha, ijtimoiy fenomenlar kollektiv ongda yuzaga keladi, ular jamiyatning umumiy qiy-

matlari va me'yorlarini aks ettiradi. Kollektiv ong bu – jamiyatning barcha a'zolari tomonidan qabul qilingan va urf-odatlar, qonunlar, madaniy an'analar bilan ifodalangan ma'naviy qadriyatlar majmuasi. Dyurkgeymning ta'kidlashicha, ijtimoiy fenomenlar individual ongdan ko'ra ko'proq jamiyatning umumiy fikrlari va kechinmalari orqali shakllanadi [12. B. 25–29].

Ijtimoiy fenomenlar jamiyatning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy tartibni ta'minlaydi. Qonun-qoidalar va axloqiy me'yorlar jamiyatda tartibni saqlashga ko'maklashadi va odamlar o'rtasidagi munosabatlar qoidalarini belgilaydi. Shuningdek, diniy e'tiqodlar va urf-odatlar jamiyat a'zolari o'rtasidagi ma'naviy birdamlikni ta'minlab, ularni umumiy qadriyatlar atrofida birlashtiradi.

Dyurkgeymning fikricha, ijtimoiy fenomenlar jamiyatning asosiy tuzilmalari bo'lib, ular jamiyat tashkil etilishi va barqarorligida muhim rol o'ynaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, jamiyatda yuz beradigan har qanday o'zgarish yoki inqiroz ijtimoiy fenomenlarning o'zgarishiga yoki yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, jamiyatdagi ijtimoiy fenomenlarni o'rganish va ularning ta'sirini tushunish jamiyatshunoslik va sotsiologiya sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Piter Berger va Tomas Lukmanning ijtimoiy konstruksionizm nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy fenomenlar insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va kundalik hayotdagi harakatlar natijasida shakllanadi. Ularning fikricha, ijtimoiy reallik insonlar tomonidan yaratiladi, rekonstruksiya qilinadi va dinamik jarayon sifatida o'zgaradi. Berger va Lukmanning «Kundalik hayotning ijtimoiy konstruksiyasi» asarida ijtimoiy konstruksionizmning asosiy tamoyillari yoritilgan. Ularning fikricha, ijtimoiy reallik insonlarning kundalik hayotdagi o'ziga xos harakatlari, tajribalari va o'zaro munosabatlari natijasida yaratiladi. Ushbu jarayon uchta asosiy bosqichdan iborat: obyektivlashtirish, institutsionalizatsiya va internalizatsiya [13. B. 59–65].

Muhokama

Obyektivlashtirish jarayonida insonlar o'z shaxsiy tajribalarini umumiy ma'noga ega bo'lgan tushunchalarga aylantiradilar. Bu jarayonda insonlar o'z tajribalari va kuzatuvlarini ifodalash uchun til, ramzlar va boshqa madaniy vositalardan foydalanadilar. Obyektivlashtirish orqali ijtimoiy faktlar va qoidalar yaratiladi.

Institutsionalizatsiya jarayonida obyektivlashtirilgan tushunchalar va qoidalar jamiyatda institutsional tartib sifatida shakllanadi. Bu jarayonda ijtimoiy institutlar, qoidalar va normalar yaratiladi, ular jamiyatda umumiy ma'no kasb etib, insonlarning harakatlarini yo'naltiradi. Institutsionalizatsiya jarayoni insonlarning kundalik hayotini tashkillashtirib, ularni belgilangan tartibda harakat qilishga undaydi.

Internalizatsiya jarayonida insonlar o'zlarining kundalik hayotdagi tajribalari orqali ijtimoiy reallikni qabul qiladilar va uni o'z shaxsiy qarashlari, tushunchalariga aylantiradilar. Bu jarayonda insonlar ijtimoiy qoidalar va normalarni o'rganadilar, ularni o'z hayotlarida qo'llashga odatlanadilar. Internalizatsiya orqali ijtimoiy reallik insonlarning ongli va ongsiz harakatlarini boshqaruvchi kuchga aylanadi.

Entoni Giddensning strukturatsiya nazariyasi ijtimoiy fenomenlarni tushunishda muhim o'rin tutadi. Giddensning ta'kidlashicha: "Ijtimoiy strukturalar insonlarning harakatlari orqali yaratiladi va modernizatsiya qilinadi, shuningdek, ular insonlarning harakatlarini cheklaydi va yo'naltiradi" [14. B. 25]. Demak, ijtimoiy fenomenlar individual va jamoaviy harakatlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Entoni Giddensning strukturatsiya nazariyasi ijtimoiy fenomenlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu nazariya ijtimoiy tuzilmalar inson harakatlari orqali yaratilib, qayta tiklanishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, bu tuzilmalar inson harakatlarini cheklaydi va yo'naltiradi. Ijtimoiy fenomenlar doimo o'zgarib turuvchi vaqt va makon kontekstida tahlil qilinadi. Bu jarayonlarni tushunishda agentlik va tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olish muhimdir. Shunga asoslanib, "ijtimoiy fenomen" tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin: ijtimoiy fenomen – bu insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar, munosabatlar va hamkorlik jarayonida shakllangan ijtimoiy tuzilmalar, qoidalar, urf-odatlar, ma'naviy va madaniy qadriyatlar yig'indisidir. Ijtimoiy fenomenlar jamiyat barqarorligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, insonlarning ijtimoiy hayotini yo'naltirish va tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi. Ular jamiyatning umumiy qadriyat va me'yorlarini aks ettirib, kundalik hayotdagi munosabatlarni tartibga solishda yordam beradi.

Bu fenomenlar jamiyatning jamoaviy ongini ifoda etuvchi elementlar bo'lib, umumiy qadriyatlar va urf-odatlar asosida shakllanadi.

Ijtimoiy fenomenning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. *Interaktivlik* ijtimoiy fenomenlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqalarni anglatadi. Ijtimoiy fenomenlar, jumladan, sport, insonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik

va ta’sirlar natijasida shakllanib, rivojlanadi. Interaktivlik tushunchasi ijtimoiy hayotda katta ahamiyatga ega, chunki u orqali jamiyatning barcha sohalarida turli jarayonlar amalga oshiriladi.

Interaktivlik nazariy asosda turli yondashuvlar orqali o‘rganiladi. Simvolik interaksionizm nazariyasiga ko‘ra, Gerbert Blumer interaktivlikni insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar va ramzlar orqali shakllanadigan jarayon deb ta’riflaydi. Insonlar o‘z harakatlarini va bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini ramzlar va ma’nolar orqali anglab, o‘zaro munosabatlarini shu asosda qurishadi. Erving Goffman interaktivlikni sahna nazariyasi asosida o‘rganib, insonlarning ijtimoiy rollarini va ularning bir-biriga ta’sirini tahlil qiladi. Bu nazariyaga ko‘ra, kishilar ijtimoiy sahnada o‘z rollarini ijro etishadi va bu jarayonda turli interaksiyalar amalga oshadi [15].

Talkot Parsons interaktivlikni ijtimoiy normalar va qoidalar orqali shakllanadigan jarayon deb ta’riflaydi. Insonlar ijtimoiylashuv jarayonida turli ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi va bu rollar asosida o‘zaro aloqalarni amalga oshiradi. Jeyms Koulmanning ijtimoiy kapital nazariyasiga ko‘ra, interaktivlik ijtimoiy kapitalning asosiy manbai hisoblanadi. Interaktivlik orqali jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar shakllanadi, bu tarmoqlar orqali o‘zaro ishonch va hamkorlik mustahkamlanadi [16; 17].

Sportda interaktivlik katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda interaktivlikning bir nechta muhim jihatlari alohida ahamiyatga ega. Masalan, jamoaviy sport turlari (futbol, basketbol, voleybol va boshqalar) ishtirokchilar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, ularning o‘zaro ishonchini oshiradi. Jamoa a’zolarining bir-biri bilan hamkorligi va o‘zaro ta’siri sport natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Shaxmat yoki tennis kabi raund asosida o‘ynaladigan sport turlari ham interaktivlikni yaqqol namoyon etadi. Ushbu sport turlarida raqiblar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va strategik yurishlar interaktivlikning asosiy jihatlaridan birini ifodalaydi. Sport musobaqalari davomida turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasida ham aloqalar va muloqotlar yuzaga keladi. Shu tariqa sport nafaqat jismoniy mashg‘ulot sifatida, balki madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Interaktivlik ijtimoiy fenomenlar, shu jumladan, sport sohasida quyidagi jihatlardan ahamiyatlidir. U insonlar o‘rtasida hamjihatlikni oshiradi, jamoa va guruhlar o‘rtasida birdamlikni mustahkamlaydi. Interaktivlik tufayli ijtimoiy tarmoqlar va aloqalar shakllanadi, bu tarmoqlar insonlarning ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, interaktivlik o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlab, jamiyatda barqarorlik va rivojlanishga ko‘maklashadi.

2. *Qonuniylik* ijtimoiy fenomenlarning asosiy jihatlaridan biri bo‘lib, u jamiyatda me’yorlar, qoidalar va qonunlarga asoslangan jarayonlarni ifodalaydi. Qonuniylik jamiyatda tartib-intizomni ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Qonuniylikni tushunish va tahlil qilish uchun turli nazariy yondashuvlar mavjud. Funksionalistik nazariyaga ko‘ra, Emil Dyurkgeym qonunlar va me’yorlar jamiyatning barqarorligi va hamjihatligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, deb ta’kidlaydi [12. B. 231]. Qonuniylik jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Ijtimoiy kelishuv nazariyasiga ko‘ra, Jan Jak Russo qonunlar va me’yorlar insonlar o‘rtasidagi kelishuv natijasida shakllanadi, deb hisoblaydi [18. B. 598]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, qonuniylik jamiyat a’zolarining manfaatlari va maqsadlariga muvofiq ravishda belgilangan qoidalar orqali ta’minlanadi. Jorj Xomansning ijtimoiy almashinuv nazariyasiga ko‘ra, qonuniylik insonlar o‘rtasidagi almashinuv jarayonlarini tartibga solish uchun kerak. Qonuniylik insonlarning o‘zaro ta’sirlarini va manfaatlarini tartibga soladi [19. B. 597 –606].

Sport faoliyati belgilangan qoidalar va me’yorlar asosida olib boriladi, bu esa sportning adolatliligi va samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir sport turi qat’iy qoidalar va me’yorlarga ko‘ra o‘tkazilib, musobaqalarning adolatli va tartibli bo‘lishini kafolatlaydi. Bu qoidalar sportchilar, murabbiylar va hakamlar tomonidan to‘liq bajarilishi shart. Musobaqa va sport tadbirlari belgilangan qonunlar va qoidalar asosida tashkil etilib, ularning adolatli, shaffof va tartibli o‘tishini ta’minlaydi. Sportda qonuniylik tartib-intizomni saqlashga xizmat qiladi, sportchilar va murabbiylar qoidalarga rioya qilishlari lozim va bu qonuniylik o‘zaro munosabatlar hamda musobaqalarning tartibga solinishi uchun muhimdir.

Qonuniylik ijtimoiy fenomenlar uchun quyidagi jihatlar bilan ahamiyatga ega. Birinchidan, qonuniylik jamiyatda barqarorlikni ta’minlaydi. Qonunlar va me’yorlar jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, nizolarni kamaytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, qonuniylik adolatni ta’minlash vositasi hisoblanadi. Har bir insonning huquqlari va majburiyatlari qonunlar va me’yorlar asosida aniq belgilangan bo‘lib, bu adolat tamoyillarini mustahkamlaydi. Uchinchidan, qonuniylik tartib-intizomni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Qonunlar va qoidalar jamiyat a’zolarining faoliyatini yo‘naltirib, jamiyatdagi barcha jarayonlarning tartibli o‘tishini kafolatlaydi.

Sportda qonuniylik quyidagi yo‘llar bilan ta’minlanadi. Har bir sport turi uchun maxsus qoidalar va me’yorlar belgilangan. Ushbu qoidalar xalqaro va

milliy sport tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilib, amalda qo‘llaniladi. Sport qoidalari va me’yorlariga rioya qilinishini ta’minlash uchun hakamlar va murabbiylar maxsus tayyorgarlikdan o‘tkaziladi. Ular sport musobaqalarida qonuniylikni ta’minlash uchun mas’ul bo‘ladilar. Sport qoidalariga amal qilinmagan taqdirda, maxsus nazorat organlari va hakamlar tomonidan jazo choralari ko‘riladi. Bu choralar sport qonunlarini buzgan shaxslar va jamoalarga nisbatan qo‘llaniladi.

3. *O‘zgaruvchanlik*. Ijtimoiy fenomenlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi va rivojlanadi. O‘zgaruvchanlik ijtimoiy fenomenlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, jamiyatdagi hodisa va jarayonlarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini anglatadi. Ijtimoiy fenomenlar doimiy ravishda rivojlanib, o‘zgarib boradi, chunki ular turli omillar ta’sirida yangilanishi mumkin. Bu o‘zgarishlar ijtimoiy hayotdagi innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot, madaniy almashinuv va siyosiy jarayonlar ta’sirida yuz beradi.

O‘zgaruvchanlikni tushunish va tahlil qilish uchun turli nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilar:

*Evolyutsion nazariya*ga ko‘ra, ijtimoiy fenomenlar tabiiy tanlov va evolyutsiya jarayonlari ta’sirida o‘zgaradi. Charlz Darvin va Gerbert Spenserning qarashlariga ko‘ra, ijtimoiy strukturalar va institutlar tabiiy ravishda rivojlanib boradi, natijada eng moslashuvchan va samarali tuzilmalar saqlanib qoladi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar aynan evolyutsion jarayonlar ta’sirida yuzaga kelib, jamiyatning barqarorligini ta’minlaydi [20. B.148].

*Ziddiyat nazariyasi*ga ko‘ra, ijtimoiy fenomenlar tabaqalashuv va manfaatlar to‘qnashuvi natijasida o‘zgaradi. Karl Marksning ta’kidlashicha, quyi va yuqori tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlar ijtimoiy o‘zgarishlarning asosi hisoblanadi. Ziddiyatlar jamiyatdagi turli guruhlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi natijasida vujudga kelib, jamiyat rivojlanishini ta’minlaydi [21. B. 72].

*Strukturalistik funksionalizm nazariyasi*ga ko‘ra, ijtimoiy fenomenlar jamiyatning barqarorligi va funksionalligini ta’minlash uchun o‘zgaruvchanlikka moslashadi. Talkot Parsonsning fikriga ko‘ra, jamiyatning turli qismi va institutlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uchun o‘zgaruvchanlik zarur. Bu yondashuvga ko‘ra, jamiyatning barqarorligi va samaradorligi turli ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik va muvozanatga bog‘liqdir [22. B. 432].

Sportda o‘zgaruvchanlikning ahamiyati juda katta. Sport turlari va sportga oid qoidalar doimiy ravishda o‘zgarib, rivojlanib boradi. Qoidalar va taktikalar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Masalan, futbolda VAR tizimining kiritilishi yoki basketbolda uch ochkolik yo‘lakning joriy etilishi. Ushbu o‘zgarishlar sport musobaqalarining adolatli va yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Qoidalarning yangilanib turishi sport musobaqalarining shaffofligini va adolatli o‘tkazilishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda sport sohasida zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar keng joriy qilinmoqda. Xususan, sport anjomlari, trenajyorlar va tahlil qilish usullari sportchilarning ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ko‘maklashadi. Texnologiyalar yordamida sportchilarning natijalarini oshirish mumkin, shuningdek, ularning salomatligi ustidan nazorat olib borish samaraliroq amalga oshiriladi.

Sport jamiyat va madaniyatning ta’sirida o‘zgaradi. Yangi madaniy munosabatlar va an’analar sportga kirib keladi, uning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar sportning rivojlanishiga, sportchilarning jamiyatdagi o‘rniga ta’sir ko‘rsatadi.

Sportda o‘zgaruvchanlik quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- Sport tashkilotlari va federatsiyalari sport qoidalari hamda taktikalarini muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqib, ularni zamonaviy talab va sharoitlarga moslashtirib boradi. Bu jarayonda sportda adolat va shaffoflikni ta’minlashga katta ahamiyat qaratiladi.

- Sport sohasida yangi texnologiyalar va innovatsiyalar joriy etiladi. Masalan, elektron o‘lchov asboblari, video qayd va tahlil tizimlari kabi vositalar sportchilarning natijalarini yaxshilashga va ularning salomatligini kuzatib borishga yordam beradi.

- Sport tashkilotlari turli mamlakatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi almashinuv va hamkorlikni rag‘batlantiradi. Bu jarayonda sport turlari va an’analari bir-biriga ta’sir qilib, o‘zgarishlar yuz beradi. Xalqaro hamkorlik sportning rivojlanishi va turli madaniyatlar o‘rtasida almashinuv jarayonlarini kuchaytirishga yordam beradi.

4. *Ma’naviy va madaniy ahamiyat*. Ijtimoiy fenomenlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lgan ma’naviy va madaniy ahamiyat jamiyatning ma’naviy tarkibi, qadriyatlari, urf-odatlari va an’analariga asoslanadi. Ma’naviy va madaniy ahamiyat jamiyatdagi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, o‘zaro hamjihatlik va birdamlikni mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi.

Ma’naviy va madaniy ahamiyatni tushunish va tahlil qilish uchun turli nazariy yondashuvlar mavjud. Masalan, Emil Dyurkgeym ma’naviyatni jamiyatning barqarorligi va birligini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlar jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda va ular orasidagi birdamlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [23. B. 233].

Xulosa

Sport madaniyat bilan yaqin bog‘lanib, madaniy elementlarni qabul qilish orqali ma’naviy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Ayniqsa, yosh avlodga madaniy merosni yetkazishda sport samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sport faqat jismoniy faollik bilan cheklanib qolmay, balki madaniy qadriyatlarni shakllantirish, saqlash va ularni kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Sportning insonlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni kuchaytirishdagi rolini alohida ta’kidlash lozim. Jamoaviy sport turlari ishonch va birdamlikni mustahkamlaydi, bu jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning barqaror bo‘lishiga zamin yaratadi. Sport madaniy almashinuv va turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasidagi hamkorlikni tezlashtiradi. Sport tadbirlari orqali turli millat vakillari o‘zaro madaniy aloqalarni o‘rnatishadi, bu esa madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sport ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shish bilan birga, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Uning ijtimoiy tuzilmalar bilan integratsiyasi jamiyatning turli qatlamlarida ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga yordam beradi. Sport nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagilarning ijtimoiy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Sport va madaniyatning o‘zaro ta’siri jamiyatda faqat jismoniy va madaniy sohalarda emas, balki kengroq miqyosda – ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ham ahamiyat kasb etadi. Sport jamiyatning umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shib, insonlarning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar:

1. *Саидов А.Х*. Ижтимоий фалсафа. – Тошкент: Фан, 2010. – 220 б.
2. *Саидов А.Х*. Ижтимоий фалсафа: назария ва амалиёт. – Тошкент: Фан, 2012. – 242 б.
3. *Жўраев М.Т*. Ижтимоий институтлар ва нормалар. – Тошкент: Маънавият, 2011. – 95 б.
4. *Жўраев М.Т*. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент: Фан, 2010. – 200 б.
5. *Жўраев М.Т*. Жамият ва ижтимоий институтлар. – Тошкент: Академия, 2008. – 156 б.
6. *Маҳкамов А.И.* Ижтимоий структуралар ва муносабатлар. – Тошкент: Маънавият, 2015. – 134 б.
7. *Sorokin P.A.* Social and Cultural Dynamics. – New York: American Book Company, 1941. – 720 p.
8. *Сорокин, П.А*. *Society, Culture, and Personality: Their Structure and Dynamics.* – New York: Harper & Brothers, 1947. – 742 p.
9. *Сорокин, П.А. Social and Cultural Dynamics.* – New York: American Book Company, 1937– 1941. – 720 p.
10. *Вебер М.* The Theory of Social and Economic Organization. – New York: Free Press, 1947. – 436 p.
11. *Вебер М*. (1978). *Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology.* – Berkeley: University of California Press, 1978. – 1469 p.
12. *Дюркгейм Э. Правила социологического метода.* – Москва: Канон-пресс-Ц, 1995. – 384 p.
13. *Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания.* – Москва: Медиум, 1995. – 323 с.
14. *Giddens A.* The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration**.** – Berkeley and Los. Angeles: University of California Press, 1984. – 402 p.
15. *Goffman E.* The Presentation of Self in Everyday Life. – New York: Doubleday, 1959. – 272 p.
16. Britannica - Talcott Parsons. [Online]. URL: https://www.britannica.com/biography/Talcott-Parsons. (Date of Access: 18.08.2024)
17. Sociology Learners - Talcott Parsons’ Social Action Theory. https://www.sociologylearners.com/talcott-parsons-social-action-theory (Date of Access: 06.07.2024)
18. *Crossman A*. Understanding Functionalist Theory. //ThoughtCo. [Online]. URL: Retrieved from thoughtco.com. (Date of Access: 12.08.2024)
19. *Homans G.C.* Social Behavior as Exchange. // American Journal of Sociology, 1958. – No 63(6). – Pp. 597–606.
20. *Darwin C*. (1859). On the Origin of Species. – London: John Murray. Spencer, H. – 439 p.
21. Marx, K., & Engels, F. (1848). The Communist Manifesto. – London: W. Reeves. – 128 p.

22. *Parsons T. The Social System.* – Glencoe, IL: The Free Press, 1951. – 575 p.
23. *Durkheim E. The Division of Labor in Society.* – New York: The Free Press, 1893. – 352 p.
24. *Холмирзаев Х.* Маънавий янгиланиш даврида инсон салоҳиятининг роли //Scienceweb academic papers collection, 2020. [Online]. URL: https://scienceweb.uz/publication/2213?ysclid=m56kskpock880882792. (Date of Access: 08.07.2024)

THE SIGNIFICANCE OF SPORTS IN THE FORMATION OF SOCIAL PHENOMENA

Z.P.Zhumakulov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 19-27.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: sport, culture, social phenomenon, spiritual development, integration, human potential, upbringing, interactivity, dualism

This article analyzes the theoretical foundations of sport as a social phenomenon and the interaction between sport and culture. It highlights the role of sport in the development of society, its connection with social structures, and its importance in strengthening relations between people. Sport is analyzed as a physical activity and a social phenomenon inextricably linked with cultural and spiritual values.

In the article, the importance of sports as a means of strengthening social and cultural ties in various spheres of society is noted, showing the role of sports in integrating culture and contributing to the spiritual development of society and the preservation of cultural heritage. The author reveals the role of sports as a social phenomenon in people's personal growth by integrating sports and culture. In particular, it was emphasized that sport is an important tool for developing team relations and strengthening human interaction and cooperation.

The research emphasizes the positive impact of sports activities on society and the contribution of interactivity, trust, and solidarity in team and individual sports to sports performance. Revision and updating of sports rules and tactics by modern requirements and actions aimed at ensuring fairness and transparency by sports organizations are also analyzed. The introduction of modern technology, such as video assistant referees (VAR) or equipment used to analyze athlete performance, has been highlighted as helping to improve athletes' performance. At the same time, athletes' health monitoring technologies have been evaluated as an important factor in ensuring the long-term effective performance of athletes.

According to the article, sports' influence on the development of society and culture manifests in the strengthening of ties between different nations and cultures through sports events and competitions. Sport is able to unite different cultural values to ensure social stability and solidarity.

According to the author's conclusion, sports as a social phenomenon are essential factors that ensure the development of society. Sports preserve society's shared values, traditions, and cultural heritage. Sports are not only physical exercise but also a phenomenon that has a positive effect on society's moral and cultural structure. The article profoundly covers the importance of sport in developing human potential and its contribution to social dynamism and societal stability.

Thus, this study is focused on studying the interaction between sports and culture, the role of sports in society and human life, and helps to understand more deeply the value of sports as a social phenomenon and its importance in society.

References:

1. Saidov, A.X. (2010) *Ijtimoiy falsafa* [Social philosophy]. Tashkent: Fan.
2. Saidov, A.X. (2012) *Ijtimoiy falsafa: nazariya va amaliyot* [Social philosophy: theory and practice]. Tashkent: Fan.

3. Juraev, M.T. (2011) *Ijtimoiy institutlar va normalar* [Social institutions and norms]. Tashkent: Ma'naviyat.
4. Juraev, M.T. (2010) *O'zbekistonda ijtimoiy fanlar* [Social sciences in Uzbekistan]. Tashkent: Fan.
5. Juraev, M.T. (2008) *Jamiyat va ijtimoiy institutlar* [Society and Social Institutions]. Tashkent: Akademiya.
6. Makhkamov, A.I. (2015) *Ijtimoiy strukturalar va munosabatlar* [Social structures and relationships]. Tashkent: Manaviyat.
7. Sorokin, P.A. (1941) *Social and Cultural Dynamics.* New York: American Book Company.
8. Sorokin, P.A. (1947). *Society, Culture, and Personality: Their Structure and Dynamics*. New York: Harper & Brothers.
9. Sorokin, P. A. (1937-1941). *Social and Cultural Dynamics*. New York: American Book Company.
10. Weber, M. (1947). *The Theory of Social and Economic Organization.* New York: Free Press.
11. Weber, M. (1978). *Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology*. Berkeley: University of California Press.
12. *Dyurkgejm, E.* (1995). *Pravila sociologicheskogo metoda* [Rules of sociological method]. Moscow: *Kanon-press-C.*
13. Berger, P., Lukman, T. (1995). *Social'noe konstruirovanie real'nosti. Traktat po sociologii znaniya.* [The reality of social construction. Tractat po sociologii znaniya]. Moscow: Medium.
14. Giddens, A. (1984). *The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration*. Berkeley and Los. Angeles: University of California Press.
15. Goffman, E. (1959). *The Presentation of Self in Everyday Life.* New York: Doubleday.
16. Britannica - Talcott Parsons. [Online]. URL: https://www.britannica.com/biography/Talcott-Parsons. (Date of Access: 18.08.2024)
17. (2024) Sociology Learners - Talcott Parsons' Social Action Theory. https://www.sociologylearners.com/talcott-parsons-social-action-theory (Date of Access: 06.07.2024)
18. Crossman, A. (2024) Understanding Functionalist Theory. //ThoughtCo. [Online]. URL: Retrieved from thoughtco.com. (Date of Access: 12.08.2024)
19. Homans, G.C. (1958) Social Behavior as Exchange. // *American Journal of Sociology.* No 63(6). Pp. 597-606.
20. Darwin, C. (1859). *On the Origin of Species*. London: John Murray. Spencer, H.
21. Marx, K., & Engels, F. (1848). The Communist Manifesto. London: W. Reeves.
22. Parsons, T. (1951) *The Social System.* Glencoe, IL: The Free Press.
23. Durkheim, E. (1893) *The Division of Labor in Society.* New York: The Free Press, 1893. – 352 p.
24. Холмирзаев Х. (2020) *Ma'naviy yangilanish davrida inson salohiyatining roli* [The role of human potential in the era of spiritual renewal]. Scienceweb academic papers collection. [Online]. URL: https://scienceweb.uz/publication/2213?ysclid=m56kskpock880882792. (Date of Access: 08.07.2024)

Muallif haqida ma'lumot:
JUMAKULOV Zohidjon Patidinovich – Andijon davlat universiteti Jismoniy madaniyat va sport fakulteti dekani, dotsent. E-mail: sciencehub@mail.ru